Key words: desert, desert ecotourism, balneological resources, extreme natural conditions, pilgrimage tourism, health and wellness tourism.

Аннотация. На сегодняшний день туризм является одной из самых быстроразвивающихся сфер в мире. Каждая страна и регион Земли отличаются своим природным разнообразием, хозяйством и особенностями социальной жизни населения. Всё это побуждает миллионы людей ежегодно совершать путешествия. В развитии туризма важную роль наряду с природными факторами играют и социально-экономические условия. Исходя из природных условий, менталитета населения, уникальной истории и других факторов, сформировались специализированные туристические направления.

Ключевые слова: пустыня, пустынный экотуризм, бальнеологические ресурсы, экстремальные природные условия, паломнический туризм, лечебно-оздоровительный туризм.



KIRISH

BMT tomonidan “2006-yil – Xalqaro cho’llar va cho’llanish yili” munosabati bilan UNWTO cho’llarda va cho’llanish jarayoni sodir bo’layotgan hududlarda turizmni rivojlantirish masalalariga bag’ishlangan “Cho’llarda turizmni barqaror rivojlantirish” nomli qo’llanmasi nashr qildi. Unda “Cho’l turizmi – cho’llarning ekstremal iqlimi ixlosmandlari hamda arid hududlarning boy tabiiy, tarixiy va madaniy boyliklariga qiziquvchilarni o’ziga jalb qilgan turizm tarmog’i” deb ta’riflangan [3].

YuNEPning “Turizm va cho’l” nomli ko’rsatmasida cho’llar dunyo quruqlikning 34 foizini egallagan bo’lsa-da, cho’llarda turizm rivojlanishi, ta’minoti haqida ishonchli raqamlar mavjud emasligi keltirilgan. So’nggi o’n yil yoki undan ko’proq davr mobaynida cho’l turizmi mahsulotlari sezilarli darajada oshdi va kengroq bozorga taklif qilinmoqda. Cho’llarning jozibadorligi, tabiatining betakrorligi va maftunkorligi, sayohatchilarning soddalik va farovonlikka intilishi, cho’llarning yashash muhiti kabilardan turizm resursi sifatida foydalanishga kuchli ishtiyoq tug’dirmoqda. Keyingi yillarda sayyohlarga turizm mutaxassislari va hukumatlar tomonidan cho’llarning tabiiy va madaniy muvozanatini saqlash, juda nozik va sezgir cho’l ekotizimlari, madaniy merosini asrab avaylash hamda insonning faoliyati natijasida yuzaga keladigan cho’llanishni to’xtatish va biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan sa’y-harakatlar kabi amaliy majburiyatlar yuklanmoqda [4].

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi juda katta turistik va rekreatsion imkoniyatlariga ega. Buyuk Ipak yo’lining chorrahasida o’rnashgan yurtimizda turli tarixiy davrlarga oid me’moriy majmualar, arxitektura va arxeologiya ansambllari, ziyoratgoh va qadamjolar saqlanib qolingan. Bular esa bugungi kunda mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda asosiy omil bo’lib xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Cho’l hududlari turistik resurslari bilan bog’liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi xalqaro tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari, jumladan, Butunjahon turistik tashkiloti, Butunjahon tabiatni muhofaza qilish tashkiloti, Cho’l bilimlari kooperativ tadqiqot markazi, Harvard University Graduate School of Design (AQSh), Manchester Metropolitan University (Buyuk Britaniya), Sharlz Darvin universiteti (Avstraliya), Urbino universiteti (Italiya), turli qit’alardagi cho’llarning turistik imkoniyatlariga oid tadqiqotlar University of Massachusetts (AQSh), University of Bayreuth (Germaniya), University of Torino (Italiya), Maiduguri universiteti (Nigeriya), Bethlehem University (Falastin), University of Namibia (Namibiya), Markaziy Osiyodagi cho’llarda turizmni rivojlantirish masalalari M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Cho’llar instituti (Turkmaniston) va boshqa qator markazlarda olib olib borilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jahonda cho’llarda turizmni barqaror rivojlantirish va shu orqali sahro yovvoyi hayvonlarini saqlab qolishga yordam berish, cho’l hududlarining turizm salohiyatidan foydalanib, yangi ish o’rinlarini yaratish orqali turizmning barqaror rivojlanishiga erishish, mamlakat va mintaqalarning turistik-rekreatsion raqobatbardoshligini oshirish, cho’l turizmi obyektlari va infratuzilmasini yaxshilashga alohida e’tiborni qaratgan holda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishish bilan bog’liq ilmiy-tadqiqot ishlari ishning metodologik asosini tashkil qiladi. Cho’l turizmining ilmiy va nazariy masalalari xorij olimlaridan D.B.Weaver, Virginie Picon-Lefebvre, Aziza Chauni, Herbert Popp, Elina Amadhila, Erisher Woyo, Hitchcock, K.Robert, Brandenburg, L.Rodney, Rikkardo Silvi, Pietro Laureano, X.Bekmoxammadi, M.Xatami, Maryam Sabokxiz, S.Sabokxiz, Mohamed Habiboullah Meyabe, Mouhcine Rhouri, Nasser Mohammad Ka’abneh, Alo Xalil va boshqalarning, MDHda V.S.Preobrajenskiy, N.S.Mironenko, S.R.Erdavletov, I.T.Tverdoxlebov, A.I.Ziryaynov, N.A.Emelyanova, M.V.Kuznesov, T.M.Kruk O.B.Mazbayev kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

UNWTOning ta’rifiga ko’ra “Cho’l turizmi – cho’llarning ekstremal iqlimi ixlosmandlari hamda arid hududlarning boy tabiiy, tarixiy va madaniy boyliklariga qiziquvchilarni o’ziga jalb qilgan turizm tarmog’i” hisoblanadi. Weaver D.B. (Avstraliya, 2001. University of Griffith) o’z tadqiqotlarida cho’l turizmi bilan chambarchas bog’liq bo’lgan yetti jihatlarni aniqladi [5]:

1. Ajoyib geologik xususiyatlar va iqlim sharoiti;
2. Yovvoyi tabiat va mavsum bilan bog’liq o’simliklarni gullashi;
3. Qadimgi, yirik yoki g’ayrioddiy o’simliklar;
4. Karvon yo’llari va boshqa cho’l sayohatlari
5. Mahalliy aholining urf-odat va an’analari;
6. Vohalardagi hayot (shahar va qishloqlar manzarasi, ixtisoslashuvi) ;
7. Muhofaza qilinadigan hududlarga sayohat.



Tadqiqot davomida esa quyidagi ta'rif ilgari surildi: "Cho'l turizmi – cho'l hududlarini kashf qilish va zavqlanish uchun tashrif buyuradigan sayohatchilar uchun mo'ljallangan faoliyat bo'lib, arid hududlarning noyob landshaftlari, xilma-xil ekotizim va ekstremal iqlimi hamda madaniy-tarixiy obyektlari, aholisi va uning urf-odat va an'analarini taklif etadi".

Cho'l zonasi tog', o'rmon, dasht zonasi singari rekreatsion resurslarga boy bo'lmasada, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu yerda xilma-xil qumli va gilli maydonlarni, barxanlar va qum gryadalarini, sho'rxok va toshloq joylarni, qir va past tog'larni uchratish mumkin. Shuningdek, cho'llarda sho'r ko'llar, quduqlar, saksovulzor o'rmonlari, qadimgi daryolarning o'zanlaridagi to'qayzorlar, har xil o'simlik va hayvonlarni ko'rish imoniyati bor. Bundan tashqari, tarixiy-arxeologik, iqtisodiy-geografik va ijtimoiy-madaniy yodgorliklar va obyektlar turistik imkoniyatning muhim qismi hisoblanadi. Cho'llardagi mazkur destinaiyalarga – shaharlar va ulardagi madaniy meros obyektlari, balneologik joylar (minerallashtirilgan yer osti suvlari asosidagi artezian buloqlari va quduqlar, issiq (termal) buloqlar, sho'r suvli ko'llar, shifobaxsh balchiqlar, quruq iqlim va yoqimli quyosh harorati va b.), yashil turizm va ekoturizm obyektlari kiradi. Afsuski, arid hududlarning katta qismidan turizm maqsadlarida bugungi kungacha foydalanilmaydi. Aynan cho'l sharoitida turistik imkoniyatlarning cheklanganligi turistik marketolog, turistik infratuzilmani loyihalashtiruvchi va turoperatorlar va umuman, turistik biznes vakillari diqqatini jalb etishda asosiy muammo sanaladi. Cho'l hududlarida turizmni rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishning murakkabligi shundaki, ularda yorqin turistik loyihalarni shakllantirishning moliyaviy qiyinligini hal etish va cho'llarning ichki qismlarida turizm tizimini tashkil qilishni qandaydir yangi noan'anaviy tamoyillar asosida ishlab chiqilishi kerak. Boz ustiga, cho'llar boshqa destinasiyalar (tog'lar, o'rmonlar, dashtlar va h.k.) bilan solishtirganda, turistik joylar, obyektlar va zonalarni kam darajada shakllanganligi bilan ifodalanadi. Aytish o'rinliki, cho'l hududlariga katta shahar shovqinidan qutilib turistlar dam olishga keladi. Ammo, bu joylarda turistik infratuzilma – transport to'ri, mehmonxonalar va umumiy ovqatlanish muassasalari juda kam yoki yo'q. Cho'llarda turistlar komfort sharoit uchun emas, balki cho'l qo'ynida yakka sayohat qilish, cho'l aholisining turmush sharoiti bilan tanishish, tabiiy va ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilish uchun kelishadi. Bundan tashqari, tuyada sayr qilish, qumda toblanish, kechqurun yulduzli osmonni tomosha qilish, quy, echki va tuya go'shti va sutidan tayyorlangan mazali ovqatlardan iste'mol qilish uchun kelishadi.

Umuman olganda, cho'l turizmi global turizmning tog', o'rmon, dasht, yaylov turizmi singari bir tarmog'idir. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, cho'l turizmi dunyoning turli mamlakatlarida turlicha rivojlangan. Masalan, cho'l turizmi AQSh, BAA, Xitoy, Avstraliya singari mamlakatlarda yuksak darajada, Saudiya Arabistoni, Marokash, Misr, Hindistonda o'rta darajada, qolgan mamlakat va mintaqalarda yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rish mumkin. Shu bois, yaqin kelajakda cho'l turizmi rivojlanmagan mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda cho'l hududlarining tabiati va resurslaridan samarali foydalanish hamda bu borada boy tajribaga ega davlatlarning ijobiy yutuqlarini amaliyotga joriy qilish lozim.

O'zbekistonda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari Milliy ro'yxati Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrda qabul qilingan 846-son qarori bilan tasdiqlangan. Respublika bo'yicha jami 8 ming 208 ta moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyekti mavjud bo'lib, shundan 4 ming 748 tasi arxeologiya, 2 ming 250 tasi arxitektura, 678 tasi esa monumental san'at yodgorligi, 532 tasi diqqatga sazovor joylardir [1]. O'zbekistonning cho'l qismida joylashgan viloyatlarda mazkur madaniy meros obyektlarining jumladan, 10 foizdan ortig'i Buxoro, 5,3 foizi Navoiy viloyatida joylashgan. Hududining asosiy qismi cho'l hududlariga to'g'ri keluvchi mazkur ikki viloyat bugungi kunda ziyorat turizmi, ekoturizm, davolash-sog'lomlashtirish turizmi singari sohalarning tobora rivojlanib borayotganligi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda Buxoro viloyatida 829 ta moddiy madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan. Shundan, 287 tasi arxeologiya yodgorliklari, 507 tasi arxitektura obyektlari, 17 tasi monumental san'at hamda 18 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. Navoiy viloyatida esa 437 ta moddiy madaniy meros obyektlari bo'lib, shundan, 340 tasi arxeologiya yodgorliklari, 70 tasi arxitektura obyektlari, 22 tasi monumental san'at hamda 5 tasi diqqatga sazovor joylar ro'yxatga olingan.

Mamlakatimiz maydonining 70 foizdan ortig'ini egallaydigan cho'lli hududlar katta ekoturistik imkoniyatlarga ega. Jumladan, Qizilqum tabiatidan geoturistik maqsadlarda foydalanish, ya'ni cho'l ekoturizmining istiqbollari katta. Cho'l ekoturizmi deganda – ma'lum bir belgilangan marshrut va muddatda (24 soatdan to 6 oy muddatga ketma-ket) cho'ldagi ekotizim va turistik destinasiyalarga tashkil etiladigan sayohat tushuniladi. Cho'l ekoturizmini tashkil etish va rivojlanishida ham pitomniklar, milliy bog'lar, davlat buyurtmalari, tabiat yodgorliklari kabi maxsus qo'riqlanadigan hududlar asosiy o'rin tutadi.

Cho'l hududlaridagi viloyatlar, xususan Buxoro va Navoiy viloyatlari katta turistik imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, viloyatning cho'l qismidagi qadimiy yo'llar (Buxoro – Samarqand, Buxoro – Qarshi, Buxoro – Xorazm va h.k.), suv obyektlari (Amu-Buxoro mashina kanali, tashlama ko'llar, sardobalar, mineral buloqlar va quduqlar va h.k.) va maxsus qo'riq maskanlari (davlat buyurtmalari, pitomniklar va h.k.), qadimiy shaharlardan (Varaxsha, Poykent, Vardonze va b.) turizm obyektlari sifatida foydalanishning istiqbollari katta. Ayni paytda, ularning ayrimlaridan turizm, xususan ichki turizm, foydalanilmoqda. Ammo kelajakda turistik infratuzilmani yaxshilash orqali mazkur obyektlardan xalqaro turizm obyekti sifatida foydalanish imkoniyati bor. Buning



uchun eng avvalo, mazkur obyektlarni turizm nuqtayi nazaridan guruhlashtirish lozim. Ushbu turistik obyektlar to'g'risida dam oluvchilarga axborot beruvchi vositalar ko'paytirish hamda reklama, targ'ibot – tashviqot ishlari rivojlantirish kerak. Qolaversa, turistik obyektlar atrofida zamonaviy turistik infratuzilmani yanada yaxshilash turistlar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Cho'l hududlarida turizmning qator turlari bilan bir qatorda davolash-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2023-yilda hududlar bo'yicha sanatoriya-kurort muassasalari soni (ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni bilan birga) 591 tani tashkil etdi. Eng ko'p sanatoriya-kurort muassasalari soni Toshkent viloyati (138 ta, bularning asosiy qismi Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasida joylashgan va shahri (89 ta) hamda Qashqadaryoda (76 ta), eng kam miqdori esa cho'l sharoitida joylashgan Sirdaryo (2 ta), Buxoro (8 ta) va Navoiy viloyatlariga (16 ta) to'g'ri keladi. Shuningdek, Namangan (50 ta), Farg'ona (47 ta), Samarqand viloyatlarida (39 ta) ham sanatoriya-kurort muassasalari soni nisbatan ko'p. Qolgan barcha hududlarda sanatoriya-kurort muassasalari soni 30 ta va undan kam. (1-jadvalga qarang).

Ko'rinib turibdiki, tabiat go'zal va xushmanzara, iqlimi qulay, yaxshi gidrografik to'rga ega mintaqalarda sanatoriya-kurort muassasalari soni ko'proq shakllangan. Aksincha, katta qismi cho'l sharoitiga ega, infrastrukturasi yaxshi ta'minlanmagan viloyatlarda ularning soni nisbatan kam. Xuddi shunga mos holda, hududlar bo'yicha sanatoriya-kurort muassasalaridagi o'rinlar soni Toshkent viloyatida eng ko'p (20,4 ming o'rin). Keyingi o'rinlarni Qashqadaryo viloyati (7,2 ming o'rin) va Toshkent shahri (5,1 ming o'rin) egallagan. Sirdaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlari esa mos ravishda, 0,3, 0,9 va 1,3 ming o'ringa ega.

Buxoro viloyatida esa atigi 8 ta sanatoriya-kurort muassasalari shakllangan. Bu jihatdan u respublikada 13-o'rinda turadi (faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda). Albatta, bunga viloyat hududining katta qismini cho'llar egallaganligi (viloyat hududining 88,6 foizi cho'llardan iborat), daryo tizimining shakllanmaganligi, iqlimining keskin kontinentalligi (yozi juda issiq, qishi qaxraton sovuq) sabab bo'lgan. Ammo shunga qaramay, mintaqada cho'l hududlari balneologiyasi shakllangan. Cho'l sharoitining noyob balneologik xususiyatidan kelib chiqib, buyrak kasalliklarini davolashga ixtisoslashgan – Markaziy Osiyo hatto, MDHda mashhur Sitorai Moxi Xosa sanatoriya faoliyat olib bormoqda.

1-jadval. Hududlar bo'yicha sanatoriya-kurort muassasalari soni* (birlik)

Hududlar	Yillar				
	2015	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	170	494	328	405	591
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10	28	17	18	25
Andijon	8	61	29	18	24
Buxoro	3	7	7	8	8
Jizzax	5	24	14	20	29
Qashqadaryo	13	29	28	37	76
Navoiy	6	11	12	9	16
Namangan	13	26	11	27	50
Samarqand	18	32	31	36	39
Surxondaryo	10	17	4	18	21
Sirdaryo	1	3	2	3	2
Toshkent	24	143	79	112	138
Farg'ona	40	51	44	34	47
Xorazm	4	20	20	24	27
Toshkent shahri	15	42	30	41	89

Izoh: *Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni bilan birga

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari[2] asosida muallif tomonidan tuzildi.

Balneologiya – mineral suvlar va boshqa tabiiy moddalarning shifobaxsh xususiyatlarini o'rganadigan va ishlatadigan fanidir. Balneologiya (lotincha balneum – hammom, cho'milish) deganda – mineral suvlar va boshqa tabiiy moddalar yordamida davolash usuli tushuniladi. Cho'l zonasi tog', o'rmon yoki dengizbo'yi mintaqasiga o'xshash balneologik resurslarga boy bo'lmasada, ularning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Cho'l hududlari balneologiyasi deganda – minerallashtirilgan yer osti suvlari asosidagi artezian buloqlari va quduqlar, issiq (termal) buloqlar, sho'r suvli ko'llar, shifobaxsh balchiqlar, quruq iqlim va yoqimli quyosh harorati va b. yordamida davolash usuli tushuniladi. Ko'rinib turibdiki, cho'l hududlari balneologik resurslar bilan yaxshi



ta'minlangan. Qizilqum cho'li bag'rida issiq (termal) buloqlar (Jongeldi va Og'itmada), minerallashgan artezian buloqlari va quduqlar (Churuq, Jongeldi, Kalata va b.), sho'r suvli ko'llar (Olot tumanida) aniqlangan va ulardan turli darajada foydalanib kelinmoqda. Masalan, Olot tumanidagi sho'r ko'l, tuzli suv va shifobaxsh balchiqlar yuqori davolash xususiyatiga ega. Undan suyak tizimi va bo'g'im kasalliklarini davolashda yaxshi natija beradi. Shuningdek, brusellezning ayrim shakllari, ba'zi asab tizimi, ayollar kasalliklari, hatto endokrin tizimi bilan bog'liq kasalliklarni ham davolash mumkin. Buxoro viloyatida bunday tipdagi sanatoriyalar allaqachon shakllangan Buxoro shahri (Sitorai Moxi Xossa) va uning yaqinida (F.A'loev j/x da) mineral suv, Romitan tumanida sho'r suv va issiq qum yordamida davolash yo'lga qo'yilgan.


Afsuski, mamlakatimizda cho'llarning balneologik resurslaridan samarali foydalanilmoqda, deb aytib bo'lmaydi. Shuningdek, cho'l zonasidagi issiq qum, shifobaxsh loy, tuzli balchiq, suvi minerallashgan quduq va sho'r ko'llar atrofida ham salomatlikni tiklash muassasalarini tashkil qilish imkoniyati bor. Mazkur maskanlarda ko'proq suyak kasalliklarini, shuningdek, radikulit, brusellyoz va asab tizimi bilan bog'liq ba'zi kasalliklarni ham davolasa bo'ladi. Kelajakda shu xildagi davolash muassasalarini ko'paytirish choralarini ko'rish zarur.

O'zbekiston cho'l sharoitining balneologik resurslarining ayrim jihatlarini g.f.d., professorlar N.K.Komilova va I.R.Turdimambetovlar ishlarida ko'rish mumkin. N.K.Komilova "Yozi issiq va quruq, quyoshli kunlari ko'p bo'ladigan hududlar O'zbekistonning tekislik qismida mavjud. Jumladan, Buxoro atrofidagi hududlarda (Sitorai Moxi Xosa) ba'zi buyrak kasalliklari bor kishilarning salomatliklarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi" deb balneologik resurslarga baho bergan [6,7].

E.E.Leyzerovich cho'llarning balneologik sharoitini quyidagicha ta'riflaydi: "Shu o'rinda cho'llarning ham iqlim sharoitining aholi salomatligini tiklashda muhim rol o'ynashini unutmash lozim. Aksariyat cho'l mintaqalarida xuddi Turkmanistonning Bayram-Ali shahridagi singari dunyo ahamiyatiga ega kurortlarni qurish mumkin. Uzoq davom etadigan (qariyb olti oy) quruq va jazirama iqlim hamda havo namligining 15-20 foizdan oshmasligi buyrak kasalliklarini davolashda yaxshi natija beradi" [8].

Buxoro va Navoiy viloyatlarida hududning iqlimiy sharoiti va resurslari asosida ishlaydigan bir nechta balneologik sanatoriy va kurortlar faoliyat olib bormoqda. Sitorai Moxi Xosa sanatoriyasi nafaqat Buxoroda, balki respublikadagi mashhur iqlimiy – balneologik kurortdir. Sitorai Moxi Xosa sanatoriyasi Buxoroning shimoliy qismida, Zarafshon daryosi vodiysida dengiz sathidan 220 metr balandlikda joylashgan. U O'zbekistondagi eng mashhur 5 sanatoriyadan biridir. Sanatoriya mutaxassislari 40 yildan ortiq vaqt davomida tabiiy shifobaxsh omillar hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda salomatlikni asrab-avaylash va tiklash bilan shug'ullanib kelmoqda. Sanatoriyda buyrak va urologik kasalliklar, endokrin, ginekologik kasalliklar; asab va boshqa terapevtik yo'nalishda muolajalar olib boriladi.

Sanatoriyada tabiiy yo'l bilan davolashga katta e'tibor beriladi. Xususan, minerallashgan suv bilan davolash, marvaridli vanna (aerogidromassaj), kedrli bochka, fizioterapeya, fitobar, balchiq bilan davolash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, sanatoriyda ichimlik galereyasi mashhur bo'lib, uning xlorid-sulfat-natriy mineral suvi terapevtik yuvish va ichish uchun ishlatiladi. "Jo'yzar" sanatoriysi O'zbekistondagi eng zamonaviy sog'lomlashtirish oromgohi bo'lib, Buxoro shahri yaqinida (5 km) joylashgan. Sanatoriy yam-yashil bog'lar bilan o'ralgan ajoyib go'zal maskanga ega. "Jo'yzar" sanatoriysi asab tizimi, urologik, ginekologik, yurak-qon tomir kasalliklari, tayanch-harakat tizimi, ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini davolashga ixtisoslashgan. Davolashda mahalliy termal xlorid-gidrokarbonat-natriyli suv faol qo'llaniladi. Muassasa mutaxassislari quyidagi xilma-xil davolash jarayonidan foydalanishni – iqlimiy, lazeromagnit, gidro, fizioterapeya, jismoniy terapiya, suv va parafin bilan davolash, o'tlar (tabiiy giyohlar) bilan ingalyasiya, tuzli g'orda davolanishni taklif etadilar.



1 – rasm. Buxoro shahri va uning atrofida sanatoriyalar



“Issiq suv” (sobiq Lenin yo‘li) sanatoriysi 1980 yil avgust oyida tashkil topgan bulib Buxoro shahri atrofida (8 km masofada) bahavo maskanda joylashgan. Sanatoriy hududi 4 ga ni tashkil qiladi va o‘zidan fitonsidlar chiqaradigan juda ko‘p manzarali (archa, tuya, mejevelnik) va mevali daraxtlar, turli xil gullar bilan ko‘kalamzorlashtirilgan. Mazkur daraxtlar va yozning issiq kunlarida ishlab turgan favvoraning yordamida havo toza, fitonsidlarga to‘yingan holda bo‘lib, inson organizmini tetiklashtiradi.

Sanatoriy hududida 1200 metr chuqurlikdan 52°S issiqlikda chiqib turgan ma‘danli suv shifoxonaning “gavhari - tashrif qog‘ozi” hisoblanadi. Hidrogeologlarning xulosasiga ko‘ra, ma‘danli suv bir necha ming yillik gravitatsion fizik-kimyoviy, mikrobiologik ta‘sirlar natijasida shakllangan bo‘lib, suv tarkibida Na, K, Ca, Mg, Fe gidrokarbonat, karbonat, sulfat, kremniy kislotasi, radon kabi minerallar, mikroelementlar, gazlar bilan to‘yib yer qaridan otilib chiqmoqda. Ushbu minerallar va mikroelementlar bemorlarning tuzalishida muhim o‘rin tutadi.

Sanatoriyda: yurak-qon tomiri kasalliklari, gipertoniya I-II darajasi, kardionevrozlar; asab (markaziy va perefirik nerv sistemasi) kasalliklaridan nevit, radikulit, diskogen radikulit, pleksit va b.; insultdan keyingi holat (6 oydan keyin); oshqozon ichak kasalliklari, jigar va o‘t yo‘llarining surunkali xastalıkları (toshli holatdan tashqari) surunkali gepatitlar, pankreatitlar, enterokolit, kolit, ich qotishi (qabziyat), ichaklar disbakteriozi, gijja kasalliklari; qandli diabet yengil va o‘rta formasi, semizlik; harakat tayanch a‘zolarining kasalliklarida: osteoxondroz, disk griyasi, travmatik artrit, poliartrit, bursit, bo‘g‘unlar kontrakturasi, artrozlar; ginekologik kasalliklar, siydik chiqarish a‘zolari kasalliklari; erkaklar va ayollar bepushtligi, surunkali prostatit va pielonefrit; nafas olish yo‘llarining surunkali kasalliklari (kattalarda va bolalarda); teri kasalliklari, psoriasis. kasalliklar davolanadi. Bundan tashqari, Buxoro shahrida Moxi Xosa Buxoro viloyati bolalar silga qarshi sanatoriysi, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun Buxoro sanatoriysi (2021-yildan boshlab), Shofirkon shahrida “Shofirkon” sanatoriysi faoliyat olib bormoqda. Buxoro viloyatidagi barcha sanatoriyalardagi o‘rinlar soni 900 tani tashkil etib, bu respublikadagi jami o‘rinlarning atigi 1,6 foizini tashkil etadi. Bu jihatdan ham u respublikada 13-o‘rinda turadi (faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda). Bu esa yaqin kelajakda Buxoro viloyatiga yangi sanatoriya-kurort muassasalariga ehtiyoj borligini bildiradi.

Navoiy viloyati bo‘yicha sanatoriya-kurort muassasalari soni 2015-2023 yillar davomida 2,6 barobarga ko‘payib, 16 taga yetdi (1-jadvalga qarang). Viloyatdagi eng mashhur sanatoriya – bu Oltinsoy sanatoriysidir. U mamlakatimizdagi mashhur 20 sanatoriydan biri. Oltinsoy sanatoriysi Xatirchi tumani hududida, Navoiy shahridan 80 km shimoliy-sharqda Oqtoq‘ yonbag‘rida joylashgan. Hududning dengiz sathidan balandligi 400 m ga teng. Ko‘p yillik havo harorati yanvarda 13°C, iyul oyida +27.5°C gacha, o‘rtacha 13.1°Cni tashkil etadi. Bu yerda davolash uchun ishlatiladigan mineral suv 1979 yilda Sirdaryo gidrogeologiya ekspeditsiyasi tomonidan ichimlik suvini izlash vaqtida topilgan. Oltinsoy sanatoriysida bemorlarni davolash uchun 1p va 2n skvajinalaridan olinadigan mineral suvlar ishlatiladi. Terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy tekshirish instituti va «GIDROINGEO» GP laboratoriyalarida bajarilgan analiz natijalariga ko‘ra mazkur suvlar kam minerallashtirilgan azotli yuqori haroratli kremniyli natriy sulfat+xloridli, kuchsiz ishqoriy yumshoq suvlar turkumiga kirib, 2 l/s debit bilan chiqadi. Suv tarkibida quyidagi spetsifik komponentlar va mikroelementlar mavjud: radon, fluor, mis, selen, rux va boshqalar me‘yordan kam miqdorda. Mazkur suvlar yurak-qon tomir sistemasi, asab sistemasi, tayanch-harakat sistemasi, endokrin sistemasi, siydik ayirish sistemasi, ginekologik va teri kasalliklarida vanna ko‘rinishida davolashga hamda oshqozon-ichak kasalliklarida davolovchi-oshxonaviy suvi sifatida ishlatishga tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha sanatoriya-kurort muassasalari tomonidan xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 2023-yilda 887,4 ming kishiga teng. Ushbu raqam 2014-yilga nisbatan 3 barobar ko‘paygan. Mazkur davrda (2015-2023-yillar oralig‘ida) sanatoriya-kurort muassasalariga tashrif buyuruvchilar Sirdaryoda 8,1, Xorazmda 5,6, Toshkent viloyatida 5,2, Surxondaryoda 4,1, Andijonda 3,6, Qashqadaryoda 3,4 martaga ko‘paygan. Aksincha, Namanganda (1,6), Buxoroda (1,7) viloyatlaridagi sanatoriya-kurort muassasalariga tashrif buyuruvchilar soni o‘rganilayotgan davrda eng kam ortgan. Buxoro viloyatidagi sanatoriya-kurort muassasalariga tashrif buyuruvchilar soni 2014-2023 yillar oralig‘ida 1,7, Navoiy viloyatida 2,2 martaga ko‘paygan. Bu Buxoroda o‘rtacha har bir sanatoriyga 2023 yilda 1687, Navoiyda 1237 tadan mehmonlar tashrif buyurganini bildiradi. Demak, Buxoroda o‘rtacha har bir oyda sanatoriyalarga 140, Navoiyda 103 nafar dam oluvchilar kelishgan. Raqamlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Navoiy viloyatidagi sanatoriya-kurort muassasalariga tashrif buyuruvchilar soni Buxoro viloyatiga nisbatan biroz past.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Buxoro va Navoiy viloyatlari sanatoriya-kurort muassasalari soni jihatidan mamlakatimizda eng oxirgi o‘rinlardan birida turadi. Ammo, viloyatlarning tabiiy-iqlimiy sharoitidan kelib chiqib, unda iqlimiy-balneologik sanatoriylarni tashkil qilish mumkin. Qolaversa, cho‘llarning aholi salomatligini tiklashda muhim rol o‘ynashini unutmaslik lozim. Yuqorida ta’kidlanganidek, cho‘l zonasidagi issiq qum, shifobaxsh loy, tuzli balchiq, suvi minerallashtirilgan quduq va sho‘r ko‘llar atrofida ham salomatlikni tiklash muassasalarini tashkil



qilish imkoniyati bor. Mazkur maskanlarda ko'proq suyak kasalliklarini, shuningdek, radikulit, brusellyoz va asab tizimi bilan bog'liq ba'zi kasalliklarni ham davolasa bo'ladi. Shu bois, kelajakda shu xildagi davolash muassasalarini ko'paytirish choralari ko'rish zarur. Chunki, cho'l zonasi katta tabiiy resurs zahiraloriga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
3. Sustainable Development of Tourism in Deserts - Guidelines for Decision Makers (English version). – Madrid, 2007. 80 p.
4. Tourism and Deserts A Practical Guide to Managing the Social and Environmental Impacts in the Desert Recreation Sector. Tour Operators' Initiative for Sustainable Tourism. World Tourism Organisation. Capitán Haya 4228020 Madrid, Spain.
5. Weaver, D. (2001). Ecotourism as mass tourism: Contradiction or reality? Cornell Hotel and Restaurant Administration Quarterly, 42(2), 104-112.
6. Komilova N.K., Mavlonov A.M. Cho'l hududlarini turistik jihatdan tadqiq qilishning xorij tajribasi // Iqlim o'zgarishi sharoitida cho'l-voha ekosistemi: muammolar va yechimlar. Xalqaro konferensiya materiallari. – Buxoro, 2025.- B. 98-100.
7. Komilova N.Q. Tibbiyot geografiasining nazariy va amaliy masalalari. – Toshkent, "Sharq", 2016. – 264 b.
8. Лейзерович Е.Е. Экономико-географические проблемы освоения пустынь. – М.: Мысль, 1968. – 158 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>